O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGI VA TASHABBUSKORLIGINI OSHIRISHNING MEXANIZMLARI

Kasimova Dilafruz Shavkatovna
Farg‘ona viloyati Maktabgacha va maktab ta`limi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
Saydamatova Nasibaxon Erbuvayevna
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

imrconf.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida yoshlarning *ijtimoiy-siyosiy faolligi va tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan mexanizmlar, ularning samaradorligi hamda takomillashtirish yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat yoshlar siyosatidagi institutsional islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari, yoshlar tashkilotlari faoliyati va mahalliy darajadagi ishtirokli boshqaruv amaliyotlari ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar parlamenti” kabi platformalarning ijtimoiy faollikni kuchaytirishdagi roli baholangan. Maqolada kontent tahlili, so‘rovnoma va taqqoslama tahlil metodlaridan foydalanilgan bo‘lib, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki oshishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarning siyosiy ongini yuksaltirish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish uchun institutsional hamkorlikni kuchaytirish, raqamli platformalardan foydalanish samaradorligini oshirish va motivatsion mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi xulosasi berilgan*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-siyosiy faollik, yoshlar tashabbuskorligi, institutsional islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari, yoshlar tashkilotlari,*

ishtirokli boshqaruv, Yoshlar daftari, Yoshlar parlamenti, motivatsion mexanizmlar.

This article analyzes the mechanisms used to enhance the socio-political activity and initiative of youth in Uzbekistan, evaluates their effectiveness, and explores ways to improve them. The study examines institutional reforms in state youth policy, digitalization processes, the activities of youth organizations, and participatory governance practices at the local level. In addition, the role of platforms such as the "Youth Register" and the "Youth Parliament" in strengthening civic engagement is assessed. The research employs content analysis, surveys, and comparative analysis methods to identify the factors influencing young people's participation in socio-political processes. The findings indicate that strengthening inter-institutional cooperation, increasing the effectiveness of digital platforms, and improving motivational mechanisms are essential to raising youth political awareness, supporting their initiatives, and expanding their participation in public administration.

Keywords: socio-political activity, youth initiative, institutional reforms, digitalization processes, youth organizations, participatory governance, Youth Register, Youth Parliament, motivational mechanisms.

В данной статье проанализированы механизмы, применяемые в Узбекистане для повышения социально-политической активности и инициативности молодёжи, оценена их эффективность и рассмотрены пути совершенствования. В исследовании изучены институциональные реформы в государственной молодёжной политике, процессы цифровизации, деятельность молодёжных организаций, а также практики партисипативного управления на местном уровне. Кроме того, дана оценка роли таких платформ, как «Молодёжная тетрадь» и «Молодёжный парламент», в укреплении гражданской активности. В работе использованы методы контент-анализа, опроса и сравнительного анализа,

imrconf.com

что позволило выявить факторы, влияющие на участие молодёжи в социально-политических процессах. По результатам исследования сделан вывод о необходимости усиления межинституционального взаимодействия, повышения эффективности цифровых платформ и совершенствования мотивационных механизмов для формирования политического сознания молодёжи, поддержки их инициатив и расширения участия в государственном управлении.

Ключевые слова: Молодёжная политика, социально-политическая активность, молодёжная инициативность, институциональные реформы, процессы цифровизации, молодёжные организации, партисипативное управление, Молодёжная тетрадь, Молодёжный парламент, мотивационные механизмы

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligi davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Yoshlarning ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, demokratik boshqaruvni mustahkamlash hamda barqaror taraqqiyotni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ko‘plab mamlakatlarda yoshlarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash, ularni davlat va jamiyat boshqaruvi jarayonlariga jalb etish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda ham yoshlar jamiyatning eng katta ijtimoiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisi soni 38 milliondan oshib, uning qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich yoshlar masalasi davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri ekanligini yaqqol namoyon etadi. Yoshlarning salohiyati va tashabbuslarini to‘g‘ri yo‘naltirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

imrconf.com

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar siyosatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi yoshlar sohasidagi tizimli islohotlarning huquqiy asosini yaratdi. Mamlakatda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida maxsus institutsional mexanizmlar shakllantirildi. Xususan, Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi, “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar forumi”, “Yoshlar akademiyasi” kabi tashabbuslar amaliyotga joriy qilindi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekistonda 10 mingdan ortiq yoshlar tashkilotlari va birlashmalari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, “Yoshlar daftari” orqali yuz minglab yoshlarning bandligi, ta’lim olishi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi ta’minlanmoqda. Yoshlar parlamenti tizimi orqali esa yoshlarning qonun ijodkorligi jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, turli grantlar, startap loyihalar va ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari orqali yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligi oshirilmoqda.

Shunga qaramay, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada kuchaytirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlarni davlat boshqaruvi jarayonlariga kengroq jalb etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va tashabbuskorligini oshirishning samarali mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi va tashabbuskorligini oshirishga qaratilgan mavjud mexanizmlar tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar ishlab chiqiladi.

2. O‘zbekistonda yoshlarning demografik salohiyati

imrconf.com

O‘zbekiston yoshlar ulushi yuqori bo‘lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga respublikada 14–30 yosh oralig‘idagi yoshlar soni 9,63 million kishini tashkil etib, bu mamlakat umumiy aholisining 25,7 foiziga tengdir.

Mamlakat aholisi esa 2025-yil boshida 37,5 milliondan ortiq bo‘lib, demografik o‘sish yiliga taxminan 2 foiz atrofida davom etmoqda.

Hududlar kesimida yoshlar soni eng ko‘p bo‘lgan hududlar quyidagilardir:

Samarqand viloyati — 1,14 milliondan ortiq yoshlar

Farg‘ona viloyati — 1,03 million

Qashqadaryo viloyati — 969 mingdan ortiq

Eng kam yoshlar soni esa Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida qayd etilgan.

Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston jamiyatida yoshlar katta demografik resurs ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

3. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha davlat siyosati

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar siyosatini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, unda yoshlarning huquqlari, manfaatlari va jamiyat hayotidagi ishtirokini ta’minlash mexanizmlari belgilab berilgan.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida quyidagi mexanizmlar joriy etilgan:

-Yoshlar ishlari agentligi faoliyati

-Yoshlar parlamenti

-“Yoshlar daftari” tizimi

imrconf.com

-Yoshlar forumlari va ijtimoiy loyihalar grant va startap dasturlaridir.

Masalan, “Yoshlar daftari” orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni bandlik bilan ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu mexanizm orqali minglab yoshlarning ta’lim olishi, ish bilan ta’minlanishi va biznes faoliyatini boshlashiga yordam berilmoqda.

4. Yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki

Yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini oshirish maqsadida mamlakatda bir qator demokratik institutlar shakllantirilgan. Xususan, Oliy Majlis huzurida tashkil etilgan Yoshlar parlamenti yoshlarning qonun ijodkorligi jarayonlarida bevosita ishtirok etishiga imkon yaratmoqda.

Bugungi kunda yoshlar parlamenti tarkibiga mamlakatning turli hududlaridan yuzlab faol yoshlar jalb qilingan bo‘lib, ular:

-yoshlar muammolarini o‘rganish,

-qonun loyihalarini muhokama qilish,

-turli ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish

-kabi faoliyatlarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, yoshlarning saylov jarayonlaridagi faolligi ham ortib bormoqda. Saylovlarda yosh saylovchilar ulushi sezilarli bo‘lib, bu esa ularning siyosiy jarayonlarga qiziqishi ortayotganini ko‘rsatadi.

5. “Ko‘ksaroy” qarorgohida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan muloqotida O‘zbekistonda yoshlarning tashabbuskorligini oshirish uchun turli grant, startap va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash haqida davra suhbati tashkillandi. Unda ayniqsa, ta’lim, texnologiya, ekologiya va ijtimoiy sohalarda yoshlarning innovatsion g‘oyalari qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Shuningdek, mamlakatda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan quyidagi tashabbuslar ham amalga oshirilmoqda:

-volontyorlik harakatlarini rivojlantirish

imrconf.com

-yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash

-raqamli texnologiyalar orqali yoshlar loyihalarini rivojlantirish

-yoshlarni davlat boshqaruvi tizimiga jalb etish

Bu kabi mexanizmlar yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, ularning jamiyat hayotidagi faolligini kuchaytirish va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

6. Xorijiy tajribalar tahlili

Finlyandiya tajribasi

Finlyandiyada yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu mamlakatda yoshlar siyosati Yoshlar to‘g‘risidagi qonun (Youth Act) asosida amalga oshiriladi. Mazkur qonunga muvofiq, yoshlarning davlat boshqaruvida ishtirok etishini ta’minlash uchun mahalliy darajada yoshlar kengashlari (Youth Councils) tashkil etilgan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Finlyandiyada 15–29 yoshdagi yoshlar aholining qariyb 20 foizini tashkil etadi. Mamlakatdagi deyarli barcha munitsipalitetlarda yoshlar kengashlari faoliyat yuritadi va ular mahalliy hokimiyat organlari qarorlarini muhokama qilishda ishtirok etadi. Shuningdek, maktablarda fuqarolik ta’limi (civic education) keng rivojlangan bo‘lib, bu yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Singapur tajribasi

Singapurda yoshlarning tashabbuskorligini rivojlantirish davlatning strategik rivojlanish siyosati bilan chambarchas bog‘liq. Mamlakatda yoshlar siyosatini amalga oshirish bilan Milliy yoshlar kengashi (National Youth Council) shug‘ullanadi. Ushbu tashkilot yoshlarni ijtimoiy loyihalar, innovatsion tashabbuslar va jamoat ishlariga jalb etishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi.

imrconf.com

Singapur aholisi tarkibida yoshlar ulushi taxminan 25 foiz atrofida bo‘lib, davlat tomonidan yoshlar uchun turli grantlar, startap dasturlari va ijtimoiy loyihalar uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratilgan. Masalan, Youth Action Plan dasturi doirasida yoshlarning ijtimoiy tashabbuslari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi hamda ularning jamiyat rivojiga qo‘shayotgan hissasi rag‘batlantiriladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari tajribasi

Amerika Qo‘shma Shtatlarida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat tashkilotlar muhim rol o‘ynaydi. AQShda yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish maktab va universitetlarda fuqarolik ta’limi dasturlari orqali amalga oshiriladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, AQShda 18–29 yoshdagi yoshlar aholining qariyb 22 foizini tashkil etadi. Yoshlarning siyosiy faolligini oshirish maqsadida mamlakatda turli dasturlar, jumladan Youth Leadership Programs, Student Government Associations va volontyorlik harakatlari keng rivojlangan. Shuningdek, saylov jarayonlarida yoshlarning ishtirokini oshirish maqsadida turli jamoatchilik kampaniyalari o‘tkaziladi.

7. Taklif va tavsiyalar

Ta’lim muassasalarida yoshlar qaror qabul qilish organlarini institutsionallashtirish.

Yoshlar uchun loyiha boshqaruvi bo‘yicha milliy o‘quv dasturini yaratish.

OTMlarda yoshlar startaplari uchun grant va inkubatsiya tizimini kengaytirish.

Ta’lim loyihalarining baholash jarayonida yoshlar ekspertligini joriy etish.

Raqamli ishtirok platformalarini ishlab chiqish.

Xulosa

imrconf.com

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jamiyat taraqqiyoti va demokratik boshqaruv tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston aholisi tarkibida yoshlar ulushining yuqoriligi ularning salohiyatidan samarali foydalanish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol jalb etish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar siyosatini rivojlantirish borasida muhim huquqiy va institutsional mexanizmlar yaratildi. Xususan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyati, “Yoshlar daftari”, Yoshlar parlamenti kabi tashabbuslar yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur mexanizmlar orqali yoshlarning ta’lim olishi, bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi va tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

-yoshlarni davlat boshqaruvi va qaror qabul qilish jarayonlariga kengroq jalb etish;

-ta’lim muassasalarida fuqarolik va siyosiy madaniyatga oid bilimlarni kuchaytirish;

-yoshlar tashabbuslarini moliyaviy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

-yoshlar tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyatini rivojlantirish;

raqamli platformalar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va tashabbuskorligini oshirish O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi, fuqarolik

imrconf.com

jamiyatini mustahkamlash hamda demokratik boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Yoshlar siyosatini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2022.
4. Anthony Giddens. Sotsiologiya. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2015.
5. Francis Fukuyama. Political Order and Political Decay. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2014.

Internet resurslari

6. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi rasmiy sayti – https://yoshlar.gov.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti – https://president.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi – https://stat.uz
9. United Nations rasmiy portali – https://www.un.org
10. The World Bank ma’lumotlar portali – https://www.worldbank.org

imrconf.com